O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 8 - iyul 409-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi 299-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning bandligini ta’minlash, ijtimoiy moslashuviga hamda kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ijrosi bo‘yicha belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish yuzasidan, ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalarning namunaviy tarkibi 1-ilovaga muvofiq hamda Toshkent viloyati hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoniga muvofiq ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish uchun “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimi joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

- Har bir tuman va shaharlarda, tuman va shaharlar hokimlari rahbarligida ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalar (keyingi o‘rinlarda - Idoralararo komissiyalar) tuzilsin.

Quyidagilar:

- Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

- ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalarning namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Belgilansinki, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

- Idoralararo komissiyalar ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning tadbirkorlik, me’morchilik, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlardagi aniq loyihalarini o‘rganib chiqish va moliyalashtirish bo‘yicha asoslantirilgan xulosalarni tayyorlashga mas’ul hisoblanadi;

4. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Fayziyev), viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi (O.Xalikulov) hamda viloyat bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi (U.Shoumarov) ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi” mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan birinchi navbatda tuman va shahar budjetlari mablag‘lari hisobidan, yetishmagan qismi bo‘yicha esa viloyat mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining o‘n baravari miqdorida berilishini ta’minlasin.

5. Viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi birgalikda 2022-yil 1-sentabrga qadar ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolar haqidagi ma’lumotlarning elektron almashinuvini ta’minlash

maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga tegishli ma’lumotlar bazasini integratsiya qilish choralarini ko‘rsin.

6. Viloyat moliya boshqarmasi, viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrga qadar “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish bo‘yicha texnik imkoniyatlarni nazarda tutuvchi alohida modul yaratilishini va ishga tushirilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi ish boshqaruvchisi (A.Mixmanov) 2022-yil 1-sentabrga qadar Idoralararo komissiyalar faoliyatini tashkil etish uchun ularni zarur multimedia materiallari, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish viloyat boshqarmasi, viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi, shahar hamda tuman hokimliklari 2023-yil va keyingi yillar uchun tegishli budjetlar parametrlarini shakllantirishda ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish bilan bog‘liq harajatlarni nazarda tutib borsin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari-M.Fayziyev, viloyat bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi boshlig‘i U.Shoumarov hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripovlar zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 8 iyuldagi
409-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalarning

NAMUNAVIY TARKIBI

t/r	Lavozimi
1	Tuman (shahar) hokimi, **Komissiya raisi**
2	Tuman (shahar) hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, **Komissiya raisi o‘rinbosari**
3	Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazi boshlig‘i
4	Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i
5	Tuman (shahar) moliya bo‘limi
6	Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
7	Tuman (shahar) mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
8	Tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi boshlig‘i
9	Ichki ishlar organlarining hududiy probatsiya inspektori, **Komissiya kotibi**

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi*

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 8 iyuldagi
409-10-0-Q/22-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Q-4797-son qaroriga asosan, Toshkent viloyati hokimining 2020-yil 15-avgustdagi 348-sonli qarorining bandlaridagi “ehtiyojmandlik darajasini” so‘zlaridan keyin “, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolar tomonidan taqdim etilgan tadbirkorlik, me’morchilik, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlardagi loyihalarni” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.